

T.VULF BADIY PROZASIDA MUALLIFNING USLUBIY O'ZIGA XOSLIGI

O.X.Ganiyeva

f.f.f.d., dotsent

Buxoro davlat universiteti

o.x.ganieva@buxdu.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14500012>

Annotatsiya: XX asr Amerika modern hikoyachiligida ko'plab diqqatga sazovor, tematik ko'lamdor, shaklan maftunkor, haqqoniy tasvirga ega asarlar yaratildiki, bunda ko'plab nosirlar qatorida T. Vulfning alohida hissassi mavjud. Ushbu maqolada biz yozuvchi T.Vulfning asar yaratishdagi nasriy individualligi, metodik spesifikasi hamda uslub ko'lamdorligi haqida fikr yuritamiz.

Kalit so'zlar: Ichki konflikt, badiiy shakl, duallik, syujet, mavzu ko'lami, tasviriy ifoda, bosh g'oya, satiric xususiyat.

Azaldan har bir muallif ijodi o'ziga xoslik kasb etishi adabiyotshunoslikda bot-bot qayd etiladi. Tabiiyki, har qanday so'z namunasining asosiy uch xususiyati borligi – asar mazmuni, mavzuiy ko'lami; yozuvchi mahoratining unda aks etishi; ijodkorning uni qay darajada his etib, voqelikning real badiiy ifodasi – shu omillarni ta'minlab berishi manbalarda ta'kidlanadi¹. T. Vulf kichik nasri XX asr AQSH modern adabiyotida o'zining salmoqdorligi hamda mazmundorligi bilan ajralib turadi. Nosir ijodi davomida qirqga yaqin hikoyalarni o'n besh nomdagi turli jurnallarda nashr ettirib, mazkur namunalarda hukmron muhitga daxldor voqelikni psixologik-falsafiy rakursdan tasvirlay oldi. T. Vulf asarlari modernizm an'alarini davom ettirib, hikoyalarda personajlarning zohiriy hamda botiniy tadqiqiga birdek e'tibor qaratilgani, falsafiy mushohadaga chorlash, turli tasviriy vositalar orqali mavjud voqelikga muallifning subyektiv munosabatini bildirishi, spetsifik poetik ifoda namoyon eta olishi diqqatga sazovor.

T. Vulf 1900-yilda AQSHning Eshvil (Ashville), Shimoliy Karolina shtatida tug'ilib, asarlarida ko'pincha avtobiografik yondashuv ustuvorligi kuzatiladi. Asosan nasrda barakali qalam tebratgan yozuvchi garchi qisqa umr kechirgan bo'lsa ham, to'rt yirik hajmli roman, ikkita hikoyalar to'plami hamda adabiyotshunoslikga oid essesi bilan XX asr AQSH nasrida inson ruhiy olamiga teran kirib bora olgan, inson dilining qatlamlarini ro'yi-rost ifodalay bilgani bilan mustahkam mavqega ega bo'ldi.

T. Vulf *“Men nihoyat o'z Amerikamni kashf qildim... Va men bu hayotni, bu yo'lni, bu dunyoni va bu Amerikaning o'z tasavvurimdagi manzarasini eng yuqori darajada, qo'limdan kelganicha, ammo o'zimga sodiq, halol va maqsadning beg'ubor softligi bilan amalga oshiraman”*², deya e'tirof etadi. T. Vulf umri davomida o'zi bilgan olam, uni o'rab turgan ijtimoiy hamda tabiiy muhit tasvirida sobit turdi, hayotiy konsepsiyasiga sodiqligini saqlagani holda badiiy ifodada real kartina yaratdi. Ruhiy zarbalar, ayriliq hamda turli sinovlar bilan o'tgan bolaligi, o'smirlik yillaridagi yolg'izlik, halovatsiz kunlar ta'siri, yozuvchi bo'lib shakllanishida duch kelgan mashaqqatli va suronli davri adib ijodining badiiy quvvatini ta'minladi³.

H. Holman “Thomas Wolfe” sarlavhali ixcham risolasida yozuvchi ijodi, uning ijodiy

¹ Jahon adiblari adabiyot haqida. (Ozod Sharafiddinov tarjimalari). – T.: Ma'naviyat, 2010. – B. 179.

² Holman H. C. Thomas Wolfe. – USA: University of Minnesota, 1960. – P. 6.

³ Sadullayev F. B. Henry Jeyms va Tomas Vulf romanlarida inson ruhiyati tasviri. – B.: Sadriddin Salim Buxoriy, 2024. – B. 72.

individual qirralari, mazkur poetik tendensiyalar ro'yobida ahamiyat kasb etgan omillar haqida so'zlab, nosirni ajratib turuvchi xususiyat uning "hayotning g'alati va achchiq mo'jizasi" ("the strange and bitter miracle of life"⁴)ga qarshi kurashgani, unga nisbatan nafrat va g'azabini ifodalaganini ta'kidlaydi. Ijodiy yo'li davomida muallif hamma narsada duallik mavjudligi, bu ikkilikda qarama-qarshi ikki tomon borligi, inkor qiluvchi jihat ochilmaguncha har qanday masala o'z yechimiga ega bo'lmasligini asarlarida isbotlashga urindi.

T. Vulfning kichik nasri sanoqli adabiyotshunoslar tomonidan tadqiq etilgani e'tiborni tortadi. H. Holmanning muxtasar risolasi 1960-yilda nashr qilingach, unda yozuvchi ijodi xususida umumiy chizgilar keltiriladi, ammo aynan T. Vulf hikoyalari poetik jihatlari monografik tafqiqot sifatida 1979-yilda J. D. Boyer hamda P. D. Uotkins, 1991-yilda J. M. Bentz tomonidan amalga oshirildi. Ijodkorning kichik nasriga nisbatan kamroq munosabat bildirilgani uning hikoyalari ilk marta o'limidan so'ng 1987-yilda to'plam shaklida nashrdan chiqqani, unga kiritilgan o'ttiz beshta hikoya ilgari hech qayerda e'lon qilinmagani bilan bog'liq. Mazkur faslda T.Vulf hikoyalarida aynan qahramon gavdalantirilishida muallif mahorati, hikoyaviy ifodada personajlarning roli, modern hikoyachilikga xos jihatlar hamda yozuvchining bevosita hamda bilvosita xarakter yaratishda o'ziga xos uslubini "Return" hamda "No Cure for it" hikoyalari misolida yaxlit bir tizim sifatida ochib berishga harakat qilamiz.

T. Vulf kichik nasri batafsil tadqiq qilingan ilk monografik ishlardan biri "Tomas Vulf kichik nasri" mavzusida bo'lib, mazkur tadqiqot J. D. Boyer tomonidan 1979-yil amalga oshirilgan. Adabiyotshunos T. Vulf hikoyalarini uch davrga bo'lib o'rganadi, ularni **dastlabki hikoyalar (early stories)** (1932-1934), **o'rta davr (middle period)** (1935-1936), **so'nggi davr (final period)** (1937-1938) kabi bosqichlarga ajratgan holda tahlilga tortadi⁵. 1979-yil kuziga kelib T. Vulf hikoyachiligi yana bir tadqiqotda tahlil qilindi, P. D. Uotkins "Tomas Vulf hikoyalari" dissertasiyasida muallifning hikoyanavis sifatida shakllanishida ruhlantirgan omillar, yozuvchining kichik nasriy namunalarini san'at darajasiga ko'tarishi, 1929-yildan 1935-yil mart oyiga qadar yozilgan **dastlabki hikoyalari (early stories)**, 1935-yil apreldan so'ng yaratilgan **o'rta davr hikoyalari (middle stories)**, 1936-yil oktyabrdan 1938-yil yanvargacha ijod qilingan **yakuniy hikoyalar (late stories)**, 1939-yildan 1966-yilgacha davom etgan davrda nashr qilingan adib **vafotidan keyin nashr qilingan hikoyalar (posthumous stories)** kabi bosqichlarga bo'lib o'rganishi alohida e'tirofga loyiq⁶.

T. Vulf o'ttiz sakkiz yil umr ko'rди, bu qisqa davr u qadar oson kechmadi, bu jarayon uning hayotida sezilarli ta'sir o'tkazib, yozuvchi sifatida shakllanishiga zamin yaratdi. Ilk hikoyasi 1932-yildan nashr qilingan bo'lsa ham, 1938-yilda vafot etgan muallif kichik ijod namunalari ancha vaqt o'tib, to'plam shaklida dunyo yuzini ko'rди. Hayotligida adib hikoyalari o'n besh turdagi nashrlarda e'lon qilinib, mazkur bosqich T. Vulf uchun tajriba davri bo'ldi, deya bemalol aytish mumkin. Zotan manbalarda talabalik davrida yozilgan hikoyalari unchalik badiiy jihatdan pishiq emasligi, keyinchalik jurnalda chop etish bo'yicha ijodkor bilan maxsus ishlagan tahrirchi Elizabet Nouellning ta'siri natijasida mustahkam badiiy shaklga va

⁴ Holman H. C. Thomas Wolfe. – USA: University of Minnesota, 1960. – P. 5.

⁵ Boyer James D. The Short Fiction of Thomas Wolfe. Submitted in Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree of Doctor of Philosophy, 1979. – P. 205.

⁶ Watkins P. D. The Short Stories of Thomas Wolfe. - A dissertation in the Department of English submitted in partial fulfillment of the requirements for the degree of Doctor of Philosophy at New York University, 1979. – P. 335.

mazmunga ega asarlar yaratgani e'tirof etiladi⁷.

T. Vulfning dastlabki hikoyalari 1932-1934 yillarda chop etilib, bu kichik nasriy asarlar hajman salmoqdorligi, asosiy mavzularni yoritishga xizmat qiladigan lirik chekinishlar va nuqtai nazarlar ustunligi, ichki konfliktga qaraganda ko'proq mannerizmga asoslangan xarakterlash uslubiga egaligi, bir-biriga qat'iy bog'lanmagan, ammo umumiy mavzu yoki bir roviy orqali birlashadigan erkin syujetlar asosida yaratilgani e'tiborni tortadi.

T. Vulf nasrida bir jihat kuzatiladiki, bu uning ijodi ibtidosida yaratgan asarlarining ba'zilari keyinchalik romanlarining ma'lum qismlari tariqasida katta bir bo'lakning bir parchasiga aylandi, biroq "I Have a Thing to Tell you", "Child by Tiger", "The Lost Boy", "Chickamauga", "The Prologue" hikoyalari bundan mustasno. Bu davr hikoyalarida yetakchi mavzulardan biri vaqt, vaqt qadri orqali hayot mazmunini anglash bo'lib, bu tematik yondashuv yozuvchi kichik nasrida so'nggi hikoyalariga qadar ustuvor mavzulardan biri bo'lib qolaverdi. Muallif kichik nasriy namunalarida vaqt mavzusi badiiy talqinida favvora, daryo, ko'l singari suv obyektlari tasvirlari yordamida ta'sirchan kartinalardan mohirona foydalandi. Bunda T. Vulf vaqt va suv har ikkisi bir joyda to'xtab turmasligi, ularga shiddatkorlik bilan siljish xosligi, hayot shafqatsiz, undagi har bir daqiqa qadrliligi va u qaytarilmasligini ifodaladi.

T. Vulf ijodining dastlabki bosqichida yaratilgan hikoyalar hajman uzunligi, asosan muallifning lirik tasviriy ifodalar keltirishi, bosh g'oya ifodasi uchun keng tabiat tasvirlari keltirilishi kuzatiladi. Muallif ijodining debochasida yaratgan hikoyalarida xarakterlari hamda obrazlarini dramatic emas, balki ko'proq statik xususiyatga egaligi oydinlashadi, ularning har biri badiiy-estetik vazifa tashib, chuqur falsafiy mohiyat kasb etadi. Odatda bu xislat hikoyalarning umumiy syujet harakatiga ko'rsatmaydi, ammo yakunda g'oyaviy maqsadni amalga oshishida muhim rol o'ynaydi. T. Vulf kichik nasrining spetsifik jihati ham an'anaviy syujet tuzilishi yoki xarakterlar orasida kechadigan konfliktga boy usulda emas, balki hayotimizda kundalik uchraydigan shaxsiy muammolar va ziddiyatlar tasviriga bag'ishlandi. Bunda biz umidvor yosh o'spirin, keksalik davriga kelib taslim bo'lgan qariya, sarson-sargardonlikda umrguzaronlik qilgan behalovat insonlar obrazlarini ko'ramiz. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, T.Vulf ijod dunyosida takrorlanmas o'ziga xos badiiy uslubga egaligi yozuvchi asarlarini haqiqiy va umrboqiy merosga aylantirdi. Uning hikoyalarida muallif goh o'zi ko'rgan, boshidan kechirgan hodisalarni real tarzda namoyon etsa, goh his etgan, ayni asar yozilayotgan vaqtda tuygan pafoslarni psixologik yondashuv orqali tadbiiq etadi. Bu ajoyib yozuv metodi T.Vulfni ayni zamondosh modernist yozuvchilar orasida o'ziga xos tasvir individualligi bilan ajratib turadi.

References:

1. Jahon adiblari adabiyot haqida. (Ozod Sharafiddinov tarjimalari). – T.: Ma'naviyat, 2010. – B. 179.
2. Benthz J. A Critical analysis of the short fiction of Thomas Wolfe. – A thesis submitted to the Faculty of Purdue University in partial fulfillment of the requirements for the degree of Doctor of Philosophy, 1991. – P. 269.
3. Holman. H. C. Thomas Wolfe. – USA: University of Minnesota, 1960. – P. 48.

⁷ Boyer James D. The Short Fiction of Thomas Wolfe. Submitted in Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree of Doctor of Philosophy, 1979. – P. iii.

4. Sadullayev F. B. Henry Jeyms va Tomas Vulf romanlarida inson ruhiyati tasviri. – B.: Sadriddin Salim Buxoriy, 2024. – B. 116.
5. Boyer James D. The Short Fiction of Thomas Wolfe. Submitted in Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree of Doctor of Philosophy, 1979. – P. 205.
6. The Complete Short Stories of Thomas Wolfe. Edited by Francis E. Skipp. – USA: Collier Books, 1989. –P. 660.
7. Watkins P. D. The Short Stories of Thomas Wolfe. - A dissertation in the Department of English submitted in partial fulfillment of the requirements for the degree of Doctor of Philosophy at New York University, 1979. – P. 320.